

MARKAZIY OSIYODAGI O'ZGARUVCHAN GEOSIYOSIY DINAMIKA: XXRNING "BIR KAMAR VA YO'L" MEGALOYIHASINING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Usmonova Yulduz Erkin qizi

O'zbekiston jurnalistika va kommunikatsiya universiteti xalqaro munosabatlar
va jahon siyosati 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan va strategik jihatdan juda muhim hudud bo'lib, u faqat xalqaro siyosatning markazida joylashgani bilan, mamlakatlar va regional kuchlarning o'zaro aloqalarida yirik rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bu mintaqa global geosiyosiy dinamikada yana bir bor diqqat markaziga aylanishda davom etmoqda, chunki uni iqtisodiy, energetik va xavfsizlik nuqtai nazaridan turli davlatlar, jumladan Xitoy, Rossiya va AQSh o'z strategik manfaatlarini ilgari surish uchun muhim imkoniyat deb bilishadi. Markaziy Osiyo geografik jihatdan Xitoyning mintaqaviy ambitsiyalari uchun ham juda muhim bo'lib, ayniqsa, Xitoyning "Bir kamar va yo'l" (Belt and Road Initiative, BRI) megaloyihasi doirasida.

Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi global miqyosda iqtisodiy rivojlanishni, transport va infratuzilma aloqalarini mustahkamlashni va savdo yo'llarini kengaytirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, bu tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ko'plab yangi imkoniyatlarni yaratishda davom etmoqda. Biroq, bu mega-loyihaning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan geosiyosiy muammolar va xavflar ham sezilarli darajada mavjud. Ushbu maqolada, Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusining Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, muammolar va istiqbollari tahlil qilishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: *geosiyosiy dinamika, geosiyosiy muammolar, iqtisodiy rivojlanish, Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi, , infratuzilma aloqalarini mustahkamlash, savdo yo'llarini kengaytirish.*

ABSTRACT

The region of Central Asia is historically and strategically a very important territory which, although it is located only at the center of international politics, plays a major role in the interactions between countries and regional powers. In recent years, this region has once again become the center of attention in global geopolitical dynamics, as it is considered by various countries in terms of economic, energy and security, including China, Russia and the United States, as an important opportunity to advance their strategic interests. Central Asia is also geographically

critical to China's regional ambitions, especially within the framework of China's Belt and Road Initiative (BRI) megaproject.

China's "One Belt and Road" initiative aims to promote economic development globally, strengthen transport and infrastructure ties, and expand trade routes. At the same time, the initiative continues to create many new opportunities for the countries of Central Asia. However, there are also significant geopolitical issues and risks associated with the implementation of this mega-project. In this article, we will try to analyze the emerging geopolitical changes, problems and prospects of China's Belt and Road Initiative in the Central Asian region.

Keywords: *geo-political dynamics, geo-political problems, economic development, China's Belt and Road Initiative, strengthening infrastructure ties, expanding trade routes.*

KIRISH

Zamonaviy dunyo duch kelayotgan jadal global o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan qaraganda, Markaziy Osiyo hududi mintaqaviy rivojlanishning barcha jihatlariga — siyosat va iqtisodiyot, ekologiya va madaniy-gumanitar mezonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi jiddiy geosiyosiy o‘zgarishlar davrini bosib o‘tayotganini kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyo – iqtisodiy, energetik va geosiyosiy jihatdan dunyodagi strategik ahamiyatga ega mintaqalardan biri hisoblanadi. XXR tomonidan 2013-yilda boshlangan “Bir Kamar va Yo‘l” tashabbusi (Belt and Road Initiative, BRI) ushbu hududning strategik o‘rnini yanada oshirdi. BRI loyihasi xalqaro savdo, transport va infratuzilmani rivojlantirish orqali global integratsiyaga erishishni maqsad qilgan. Ammo bu tashabbus bir qancha muammolar va o‘ziga xos dinamikani keltirib chiqardi [1].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yili Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida qayd etganidek, “Ma’lumki, Markaziy Osiyo geostrategik joylashuviga ko‘ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi jarayonlar markazida bo‘lib kelgan. Bizning mintaqamiz doimo o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘laydigan noyob ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Xorijlik xalqaro ekspertlarning e’tiroficha, hozirgi paytda buning uchun zarur va qulay shart-sharoitlar yaratilgan. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda olamshumul o‘zgarishlar amalga oshirildi va bularning barchasi siyosiy ishonchning mustahkamlanishi, yaqin qo‘shnichilik aloqalarining izchillik bilan rivojlanishi, ko‘p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik timsolida o‘z ifodasini topmoqda. Avvalgi

tarqoqlik o‘rnini endilikda mintaqa mamlakatlarining o‘zaro ahilligi, qalin do‘stona munosabatlari va yana-da faol hamda manfaatli hamkorligi egallamoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo boy energetik resurslarga ega. Turkmaniston, Qozog‘iston va O‘zbekiston dunyo miqyosidagi tabiiy gaz va neft eksportchilari hisoblanadi. Shu bois, energetika sohasidagi nazorat ushbu davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega. XXR mintaqadan energiya importini kengaytirish uchun infratuzilmani rivojlantirmoqda. Rossiya Markaziy Osiyo bilan tarixiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan mustahkam aloqalarga ega. Moskva Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) va Evroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi orqali mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy integratsiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Mintaqa orqali yangi temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari va transport koridorlarini barpo qilish natijasida savdo oqimlari optimallashtiriladi. Masalan, XXR va Yevropani bog‘lovchi “Chongqing-Duisburg” temir yo‘li savdo jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. XXRdan katta hajmda kredit olgan ayrim davlatlar uchun qarzdorlik “moliyaviy qopqon” xavfini tug‘diradi. Masalan, Qirg‘iziston va Tojikiston katta miqdorda XXR kreditlarini olgan, bu esa ularning moliyaviy mustaqilligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. XXR mintaqadagi muammolarni hal qilishda davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy qilishi mumkin. Masalan, suv resurslarini birgalikda boshqarish yoki ekologik muammolarni yechish bo‘yicha qo‘shma dasturlar [2].

Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusining asosiy maqsadlari va tamoyillari. "Bir kamar va yo'l" tashabbusi (BRI) Xitoy raisi Si Szinpin tomonidan 2013-yilda e'lon qilindi. Bu tashabbus ikki asosiy komponentga ega: birinchisi — "Yo'l" (Silk Road Economic Belt) bo'lib, Xitoyni Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan bog'laydigan transport va infratuzilma tarmog'ini yaratishni ko'zda tutadi; ikkinchisi — "Kamar" (21st Century Maritime Silk Road) esa Xitoyning dengiz orqali janubiy Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan aloqalarini kuchaytirishga qaratilgan.

Xitoyning BRI tashabbusi global miqyosda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, savdo yo'llarini kengaytirish, yangi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, va Xitoyning iqtisodiy hamda siyosiy ta'sirini oshirishni maqsad qiladi. BRI doirasida ko'plab infrastruktura loyihalari, jumladan avtomobil yo'llari, temir yo'llar, portlar, energetika tizimlari va boshqa investitsiyalar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbus Xitoy uchun iqtisodiy o'sishning yangi manbai bo'lib, shuningdek, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlariga yangi rivojlanish imkoniyatlari yaratadi [3].

Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlari. Markaziy Osiyo Xitoyning tashqi siyosatidagi muhim mintaqadir. Ushbu mintaqa Xitoy uchun strategik resurslar, savdo yo'llari va xavfsizlik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. "Bir kamar va yo'l" tashabbusining Markaziy Osiyo bo'yicha rivojlanishi Xitoyning mintaqadagi ta'sirini kuchaytirishga, iqtisodiy va savdo aloqalarini mustahkamlashga, shuningdek, Xitoyning energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi [4].

Markaziy Osiyo orqali Xitoyning Yevropa va boshqa global bozorlar bilan savdo aloqalari yanada osonlashadi. Ushbu hududda transport va logistika tarmoqlarini rivojlantirish orqali Xitoy o'zining iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradi. Shuningdek, Xitoyning Markaziy Osiyodagi ta'siri uning energetika xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Mintaqaning neft, gaz va boshqa tabiiy resurslari Xitoyning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi.

Markaziy Osiyo va "Bir kamar va yo'l" tashabbusining o'zaro aloqalari. Markaziy Osiyo davlatlari uchun "Bir kamar va yo'l" tashabbusi iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. BRI doirasida amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari Markaziy Osiyo mamlakatlarining transport va energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yordam beradi. Bu tashabbus o'z navbatida, mintaqada ish o'rinlari yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish, va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishni ta'minlaydi [5].

BRI doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ko'plab infratuzilma loyihalari amalga oshirilgan. Xitoyning temir yo'llarini qurish, avtomobil yo'llarini rivojlantirish, portlar va boshqa transport tarmoqlarini yangilash kabi loyihalar mintaqadagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi. Ushbu loyihalar Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xitoyning infrastruktura rivojlanishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim bo'lib, ular yangi iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'ladi [6].

Geosiyosiy muammolar va xavflar. "Bir kamar va yo'l" tashabbusi bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolardan biri — bu Xitoyning mintaqadagi ta'sirining ortishi. Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish orqali ko'plab foydalarni qo'lga kiritishsa-da, shu bilan birga ular Xitoyning siyosiy va iqtisodiy ta'siriga bo'lgan qaramlikni kuchaytirishadi. Xitoyning iqtisodiy ta'siri ortishi bilan, ba'zi davlatlar o'zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolish muammosiga duch kelishi mumkin.

Xitoyning Markaziy Osiyodagi ta'sirini kuchaytirishiga qarshi turadigan boshqa davlatlar ham mavjud. Rossiya, AQSh va boshqa davlatlar Xitoyning mintaqadagi roli ortishini bir qator xavflar bilan bog'laydi. Rossiya o'zining Markaziy Osiyodagi

an'anaviy ta'sirini yo'qotishdan xavotirda, AQSh esa Xitoyning global miqyosda kuchayishini chegaralashga harakat qilmoqda. Shu sababli, Markaziy Osiyo davlatlari Xitoyning ta'siriga qarshi turish, balansni saqlash va o'zining mustaqil siyosatini yuritish maqsadida ko'plab geosiyosiy muammolar bilan yuzlashishlari mumkin [7].

Markaziy Osiyo Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi doirasida geosiyosiy raqobatga boy hududga aylanmoqda. Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan mustahkamlanayotgan iqtisodiy aloqalari Rossiya, AQSh va boshqa global kuchlar tomonidan diqqat bilan kuzatilmoqda. Rossiya Markaziy Osiyo hududida o'zining ta'sirini saqlab qolish uchun harakat qilmoqda, shuningdek, o'zining iqtisodiy va xavfsizlik siyosatini davom ettirmoqda.

AQSh ham o'zining geosiyosiy manfaatlarini Markaziy Osiyo mintaqasida saqlab qolish uchun Xitoyning ortib borayotgan ta'siriga qarshi turadi. AQShning strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlash va bu mamlakatlarni Xitoyning ta'siridan himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi global miqyosda iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan imkoniyatlarni yaratadi, lekin bu Xitoyning geosiyosiy ta'sirini kuchaytirish bilan bog'liq xavflarni ham keltirib chiqaradi [8].

Markaziy Osiyo energiya resurslari Yevropa uchun katta ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi o'zining energiya ta'minotini diversifikatsiya qilishga intilmoqda va Markaziy Osiyoning gaz va neft zaxiralari bu borada muhim rol o'ynashi mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyo Yevropaning xavfsizligi va barqarorligi uchun ham ahamiyatlidir. Mintaqadagi beqarorlik va ziddiyatlar Yevropaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda. Biroq, Markaziy Osiyoning Yevropaga integratsiyasi jarayoni bir qancha muammolarga ham duch kelmoqda. Mintaqa mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha, bu esa hamkorlikni murakkablashtiradi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasidagi raqobat va ziddiyatlar ham mintaqaning Yevropaga integratsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkin. Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy joylashuvi va tabiiy resurslariga ko'ra Yevropa uchun katta ahamiyatga ega. Mintaqa Yevropani Osiyo bilan bog'lovchi muhim transport yo'lagi bo'lib, energiya resurslarining yetkazib beruvchisi sifatida ham ahamiyatlidir. Shuningdek, Markaziy Osiyo Yevropaning xavfsizligi va barqarorligi uchun strategik rol o'ynaydi. Markaziy Osiyoning Yevropaga integratsiyasi jarayoni istiqbolli yo'nalish bo'lib, iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin. Biroq, bu jarayonda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun mintaqa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasida yaqin hamkorlik va o'zaro tushunish zarur.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy joylashuvi va tabiiy resurslariga ko'ra dunyo miqyosida muhim ahamiyatga ega. Mintaqa Yevropa va Osiyoni bog'lovchi ko'priklarni vazifasini o'taydi hamda transport yo'laklari va energiya ta'minoti uchun strategik ahamiyatga ega [9]. Markaziy Osiyoning Yevropa bilan aloqalari mintaqaning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhim sanaladi.

Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi, albatta, Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Mintaqada iqtisodiy integratsiya va infratuzilma rivojlanishi bilan, Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining iqtisodiy o'sishlarini tezlashtirishlari mumkin. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyati bir qator geosiyosiy, iqtisodiy va xavfsizlikka oid muammolarga bog'liq bo'ladi.

Markaziy Osiyo davlatlari, Xitoy bilan o'z iqtisodiy aloqalarini kengaytirish orqali yangi imkoniyatlar yaratishlari mumkin. Biroq, bu mamlakatlar Xitoyning ortib borayotgan ta'siridan ehtiyot bo'lishlari va o'zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolishlari zarur. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun birgalikda ishlashlari kerak [10].

Markaziy Osiyo geosiyosiy maydon sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXRning "Bir Kamar va Yo'l" tashabbusi mintaqada uchun yangi imkoniyatlarni taklif etib, rivojlanishga xizmat qilmoqda. Ammo loyiha muvaffaqiyati mintaqaviy siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, mahalliy manfaatlarni inobatga olish va qarzdorlik xavfini kamaytirishga bog'liq. Mintaqadagi davlatlarning o'zaro hamkorligi va XXR bilan barqaror aloqalari BRI tashabbusining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. XXRning "Bir kamar, bir yo'l" megaloyihasi Markaziy Osiyo uchun katta imkoniyatlarni ham, xavflarni ham o'z ichiga oladi. Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" megaloyihasi mintaqaning geosiyosiy dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Loyiha mintaqaga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish va'dasini bergan bo'lsa-da, bir qancha muammolar va to'siqlar ham mavjud. Mintaqadagi davlatlar ushbu loyihaning ijobiy tomonlarini maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun ehtiyotkorlik bilan yondashishlari kerak. Bu esa, loyihalarning ekologik va ijtimoiy jihatlariga e'tibor berishni, qarz yukini boshqarishni va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashni talab qiladi. Shuningdek, mintaqaning geosiyosiy muvozanatini hisobga olish va turli kuchlar bilan muvozanatli munosabatlarni o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlariga transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi savdo yo'llarini ochish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatini beradi. Xitoyning investitsiyalari energiya, transport va boshqa sohalarda yirik loyihalarning amalga oshirilishiga yordam beradi.

XULOSA

Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusi Markaziy Osiyo uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi, lekin bu tashabbus mintaqada geosiyosiy raqobat, xavf va muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xitoyning ortib borayotgan ta'siri Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin, shu bois ular o'zining geosiyosiy manfaatlarini saqlab qolish uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari zarur. Boshqa davlatlar, xususan, Rossiya va AQSh, Xitoyning mintaqadagi ta'sirini cheklashga harakat qilishadi, shuning uchun Markaziy Osiyo davlatlariga global geosiyosiy raqobatni muvozanatlash va o'zining iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarini himoya qilish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xi Jinping. (2013). *"One Belt, One Road" Initiative Speech*. Beijing: People's Publishing House.
2. Hillman, J. E. (2018). *The Emperor's New Road: China and the Project of the Century*. Yale University Press.
3. Freeman, C. (2020). *The Belt and Road Initiative: A Global Strategy*. *International Relations Journal*, 45(2), 12-29.
4. Rumer, E., & Sokolsky, R. (2020). *Central Asia: Regional Geopolitical Dynamics and Security Considerations*. *Foreign Affairs Journal*, 78(3), 101-115.
5. Dosymbekova, M. (2021). *The Belt and Road Initiative in Central Asia: Opportunities and Risks*. *Journal of Eurasian Studies*.
6. Peyrouse, S. (2019). *China's Strategic Interests in Central Asia*. Routledge.
7. Dave, B. (2018). *Silk Road Economic Belt: Challenges for Central Asian States*. *China Quarterly*.
8. Pomfret, R. (2020). *The Central Asian Economies in the Twenty-First Century*. Princeton University Press.
9. The World Bank (2022). *Belt and Road Economics: Opportunities and Risks of Transport Corridors*.
10. Laruelle, M., & Peyrouse, S. (2013). *Globalizing Central Asia: Geopolitics and the Challenges of Economic Development*. Routledge